



УДК:35.08:316.77

Xurshida HASANOVA,

Mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

O'zMU dotsenti T.Eshbekov taqrizi asosida

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING IJTIMOIIY IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI

Аннотация

Maqolada davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy imidjini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'ri yoritilgan. Davlat xizmatchisi imidjining kasbiy kompetensiya, shaxsiy fazilatlar va fuqarolarga munosabat kabi asosiy jihatlar tahlil qilinadi. OAVning axborot berish, shaffoflikni ta'minlash, ijobiy obraz yaratish, tanqid va tahlil orqali rivojlanishga turtki berish hamda davlat va jamoatchilik o'rtasida muloqot ko'prigi bo'lish vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, an'anaviy va raqamli media, bloggerlar ta'siri, axborotning biryoqlama yoritilishi, feyk xabarlar va media savodxonlik muammolari ko'rib chiqilib, davlat xizmatchilari imidjini yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmati, davlat xizmatchisi, ijtimoiy imidj, ommaviy axborot vositalari, media, jamoatchilik fikri, shaffoflik, raqamli media.

РОЛЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО ИМИДЖА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ

Аннотация

В статье рассматривается роль средств массовой информации в формировании социального имиджа государственных гражданских служащих. Анализируются основные составляющие имиджа государственного служащего: профессиональная компетентность, личные качества и отношение к гражданам. Раскрываются функции СМИ в информировании общества, обеспечении прозрачности, создании положительного образа, стимулировании развития посредством критики и анализа, а также в организации коммуникации между государством и общественностью. Рассматриваются традиционные и цифровые медиа, влияние блогеров, проблемы одностороннего освещения информации, фейковых сообщений и медиаграмотности. Предложены рекомендации по совершенствованию имиджа государственных гражданских служащих.

Ключевые слова: государственная гражданская служба, государственный служащий, социальный имидж, СМИ, медиа, общественное мнение, прозрачность, цифровые медиа.

THE ROLE OF MASS MEDIA IN SHAPING THE SOCIAL IMAGE OF CIVIL SERVANTS

Annotation

The article examines the role of mass media in shaping the social image of civil servants. It analyzes the main components of a civil servant's image, including professional competence, personal qualities, and relations with citizens. The article highlights the functions of mass media in informing the public, ensuring transparency, creating a positive image, encouraging development through criticism and analysis, and establishing communication between the state and society. Traditional and digital media, the influence of bloggers, one-sided information coverage, fake news, and media literacy issues are also considered. Recommendations for improving the image of civil servants are proposed.

Keywords: civil service, civil servant, social image, mass media, media, public opinion, transparency, digital media.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda davlat fuqarolik xizmati - davlat boshqaruvining asosiy ustuni, aholi bilan davlat o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradigan muhim tuzilma hisoblanadi. Fuqarolik xizmatchilarining samarali ishi davlatning nufuziga, to'g'ridan-to'g'ri esa aholining davlatga bo'lgan ishonch darajasiga ta'sir etadi. Shu bois xizmatchilarning ijtimoiy imidjini shakllantirish va mustaxkamlash masalasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda Ommaviy axborot vositalari (OAV)ning roli beqiyos. Media jamiyat ongini shakllantiradi, axborotni targ'ib qiladi, xizmatchilarning faoliyatini ochiq-oshkora yoritadi va fuqarolar bilan muloqotni yaqinlashtiradi. Bugungi raqamli davrda OAV nafaqat axborot tarqatish, balki ijtimoiy fikrga ta'sir ko'rsatishda ham yetakchi kuchga aylangan.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy imidji tushunchasi

Ijtimoiy imidj - bu aholining muayyan toifaga nisbatan shakllangan umumiy tasavvuri, ruhiy bahosidir.

Fuqarolik xizmatchisi imidji quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

- 1) Kasbiy kompetensiya
- bilim darajasi;
- xizmat vazifalarini to'g'ri bajarish;
- mas'uliyat va intizom.
- 2) Shaxsiy fazilatlar
- odob-axloq;
- muomala madaniyati;
- halollik va shaffoflik.
- 3) Fuqarolarga munosabat
- murojaatlar bilan ishlash;
- tezkorlik;
- muloqot madaniyati.

Jamiyat bu sifatlarni asosan OAV orqali ko'radi.

Shu bois OAVda xizmatchilar to'g'risidagi kontent qanchalik to'g'ri va xolis bo'lsa, ijtimoiy imidj shunchalik musbat shakllanadi.

2. OAVning ijtimoiy imidjni shakllantirishdagi asosiy vazifalari

2.1. Axborot berish va shaffoflikni ta'minlash

Davlat xizmatlarining ochiqdigi - jamiyat ishonchi garovidir. OAV:

xizmatchilarning faoliyatini keng yoritadi;

-davlat dasturlari va islohotlari haqida tushuntirish ishlarini olib boradi;

-fuqarolarga davlat organlari qanday ishlayotganini ko'rsatadi.

Bu jarayonda jamoatchilikda "davlat xizmatchilari ochiq ishlayapti, xalq uchun xizmat qilmoqda" degan fikr paydo bo'ladi.

2.2. Musbat obraz yaratish

-OAV xizmatchilarning:

-yutuqlari,

-yangi tashabbuslari,

-innovatsion xizmat turlarini joriy etish kabi ishlarini targ'ib qiladi.

Masalan, elektron hukumat, onlayn xizmatlar, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yoritish — xizmatchilarning zamonaviy, faol, xalq manfaati uchun ishlayotgan toifa sifatidagi obrazini kuchaytiradi.

2.3. Tanqid va tahlil orqali rivojlanishga turtki berish

OAVning tanqidiy funksiyasi ham muhim:

-kamchiliklar;

-xizmatlardagi qiyinchiliklar;

-byurokratik to'siqlarni yoritish

-fuqarolik xizmatidagi muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. To'g'ri tanqid fuqarolik xizmatchilarini mas'uliyatli, intizomli va xalqning ishonchini oqlashga majbur qiladi.

2.4. Fuqarolar bilan muloqot ko'prigi

OAV:

-murojaatlar, shikoyatlar, savollarni davlat organlariga yetkazadi;

-rasmiy shaxslarning intervyularini tashkil qiladi;

-jamoatchilik va davlat o'rtasida ikki tomonlama kommunikatsiyani ta'minlaydi.

Bu jarayon xizmatchilarning "yuqorida o'tirgan olis amaldor" emas, "xalqqa yaqin xizmatchi" ekani haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

3. OAV turlari va ularning ta'sir darajasi

3.1. An'anaviy media (televideniye, radio, gazeta, jurnal)

An'anaviy OAV hali ham eng ta'sirchan manbalardan biri:

Televideniye:

keng qamrovli auditoriya;

rasmiy xabarlarining ishonchli manbai.

Gazeta va jurnallar:

tahliliy materiallarni chuqur yoritish imkonini;

davlat xizmatchilari faoliyati bo'yicha maqolalar.

Radio:

tezkor axborot uzatish;

provinsiya va chekka hududlarga yetib borish.

An'anaviy medianing obro'-e'tibori yuqori bo'lgani uchun unda davlat xizmatchilarning faoliyati yoritilishi imidjga kuchli ta'sir qiladi.

3.2. Internet va raqamli media

Bugungi kunda eng ta'sirchan platforma:

axborot tezligi;

interaktivlik;

fuqarolarning fikr bildirish imkoniyati.

Davlat xizmatchilari Telegram, Instagram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali jamoatchilik

bilan muloqot qiladi. Bu esa imidjni yanada insonparvar va ochiq qiladi.

3.3. Bloggerlar va frilans media

Bloggerlarning ta'siri juda katta:

auditoriya ishonchi yuqori;

hayotiy misollar;

fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri fikrlari.

Agar bloggerlar davlat xizmatchilari faoliyatini xolis va obyektiv yoritssa, bu jamiyatdagi ishonchni oshiradi.

4. OAVda fuqarolik xizmatchilari imidjini shakllantirishdagi asosiy muammolar

4.1. Axborotning biryoqlama yoritilishi

Ayrim hollarda:

faqat rasmiy axborot berilishi,

tanqidning yashirilishi

ortiqcha maqtov

jamoatchilikda haqiqiy tasavvur paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

4.2. Feyk xabarlar va manipulyatsiyalar

Internetda tarqaladigan:

yolg'on ma'lumotlar;

manipulyativ postlar;

montaj qilingan videolar

xizmatchilar imidjiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

4.3. Media savodxonlik pastligi

Fuqarolar har doim axborotni tanlab qabul qila olmasligi:

haqiqiy va soxta kontentni farqlash qiyinligi

imidjga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Fuqarolik xizmatchilari imidjini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar

1) OAV bilan tizimli hamkorlik

matbuot xizmatlarini kuchaytirish;

tezkor ma'lumot berish;

jamoatchilikka yo'naltirilgan mediaplanlar tuzish.

2) Ochiqlik va hisobdorlikni oshirish

brifinglar;

press-turlar;

onlayn brifinglar.

3) Ijtimoiy tarmoqlarda faollik

rasmiy sahifalar;

interaktiv efirlar;

murojaatlarga javob berish.

4) Tanqidiy materiallar bilan konstruktiv ishlash

kamchiliklarni tan olish;

ularni bartaraf etish rejararini e'lon qilish;

jurnalistlar bilan ochiq muloqot.

5) Media savodxonlikni oshirish

xizmatchilar uchun media-treninglar;

noto'g'ri axborotga qarshi tezkor reaksiya;

PR va kommunikatsiya ko'nikmalari.

Xulosa. Davlat fuqarolik xizmatchisining ijtimoiy imidji - bu faqat uning shaxsiy fazilatlarini natijasi emas, balki OAV orqali jamiyat ongida yaratiladigan umumiy obrazdir. OAV bu jarayonda:

axborot tarqatuvchi,

tanqidchi,

tushuntiruvchi,

jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi

kuch sifatida muhim o'rin egallaydi.

Agar media bilan to'g'ri, ochiq va tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilsa, fuqarolarning davlatga va xizmatchilarga bo'lgan ishonchi ortadi, davlat boshqaruvi samarasi yuksaladi va jamiyatda ijobiy munosabat mustahkamlanadi.

Avvalo, mavzu hamiyatiga e'tibor qiladigan bo'lsak, Davlat fuqarolik xizmatchilari ta'rifining o'zi tom ma'noda nafaqat ijtimoiy balki siyosiy imidjni o'zida nomoyon qilib

turibdi. Chunki davlat xizmatchisi bu har tomonlama imidjni o'zida mujassam etmak demakdir. Hozirda jahon miqyosida davlat va shaxs imidjini tadqiq qilish, bu boradagi ishlarni jadallik bilan muhim masala sifatida mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, imidj shakllanishi, shaxsning shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, bir davlat fuqarolik xizmatchisining imidji butun bir tashkilot korxona davlat idorasining kelajagini belgilab hamda ifodalab beradi.

Men bu ilmiy tadqiqot ishiga qo'l urmasimdan avval imidj tushunchasini juda tor ma'noda tushungan ekanman. Masalan, imidj bu faqat tashqi ko'rinish, sochi kiyimi inson imidjini tashkil qiladi. Yoki bo'lmasa harakatlar maneralar ya'ni so'zlashish uslubi, boshqalarga bo'lgan munosabati va harakatlari butun bir imidjni shakllantirib ifodalaydi degan tushunchada edim.

Imidj muhim bo'lish bilan birga zarur vosita ekanligini ko'pgina olimlarimiz, davlat xizmatchilari bilan suhbatlar utkazish davomida bu borada bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldim. Ayniqsa, bir davlat tashkiloti xizmatchisining imidji butun bir tashkilotga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, shaxsiy imidj bilan kasbiy imidj bir-biri bilan hamohang ajralmas salohiyatga ega ekanligini anglagandekman.

Bugun dunyoda murakkab va tezkor o'zgaruvchan globallashuv sharoitida har bir davlatning demokratlashganlik darajasining muhim ko'rsatkichlaridan hisoblangan ijtimoiy-madaniy, siyosiy hamda iqtisodiy makonida yosh kadrlarning mavqei qanday ekanligi bilan ham belgilanadi. Ayni vaqtda jahonning ko'pgina mamlakatlarida davlat xizmatchilari bilan ishlash davlat tashkiloti vakili imidjini kashf qilish, yangicha modellarini shakllantirish, innovatsion mexanizm va texnologiyalarni yaratishga doir ko'plab ilmiy tadqiqot dargohlari faoliyat olib bormoqda. Bu bejiz emas, imidj idrok qilish va shakllantirish davlat rivojida muhim rol o'ynaydi. Tarixga nazar solsak, barcha davrlarda jamiyatdagi o'zgarishlarning asosiy negizida davlat xizmatchilari yani liderlar bo'lgan. U insonlar davlat yoki xalq tomonidan tayinlanganligidan qat'i nazar o'zida liderlik salohiyati bilan bir vaqtda davlat xizmatchisi imidjini tom ma'noda rivojlantirib shakllantira olgan. Bunday insonlar har doim atrofga, insonlar kayfiyatiga, yashash tarzining o'zgarishiga katta ta'sir o'tkazib, xatto yoshlarni o'z ketidan ergashtira olgan.

Bugun har bir davlat xizmatchisi rasmiy lider maqomida bo'lib, yosh kadrlar ma'lum bir kutuvlar umid qiladi va yangi-yangi o'zgarishlarni kutadi. Mamlakatimiz ilg'or fikrlaydigan, inovatsiyalarga moyil hamda yangiliklardan qo'rqmaydigan o'zining kasbiy imidjiga ega davlat xizmatchilariga muhtojdir. Samarali davlat xizmatchisi haqida gapirar ekanmiz, davlat tizimlariga xos bo'lgan bir jihatni eslab o'tsak. Bu albatta, davlat xizmatchisining imidjidir.

Bugun davlat fuqarolik xizmatini islohi qilish, davlat boshqaruvi tizimini yangilash va xalqqa nafi tegish unumdorligini oshirishga qaratilgan ishlar ko'lami kengayib bormoqda. O'z kasbiy imidjiga ega bo'lish bilan birga zamonaviy davlat xizmatchisi o'ziga xos tarzda noodatiy qarorlar qabul qilib, fikr va mulohazalari har bir so'zi hamda qarori fakt va dalilga asoslangan bo'lishi kerak. Chunki yangilanishlar sari ildam odimlayotgan Yangi O'zbekistonimiz milliy manfaatlarini ro'yobga chiqaradigan, jahon miqyosida millatni ko'kka ko'taradigan professional, malakali o'z so'zi, nutqi va imidjiga ega davlat xizmatchilariga muhtojdir. Albatta, bu avlodlar almashinuviga ham bog'liqdir. Bugun o'qiganiga emas ko'proq ko'rganiga taqlid qiladigan shiddatli zamonda yashapmiz. Shunday ekan, biz qanday imidjni yaratsak ana shunday avlod voyaga yetadi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning davlat boshqaruvi sohasiga muvaffaqiyatli faollanishi va integratsiyasiga ham bog'liq. Yuqorilagi fikrlarni jamlagan holda davlat fuqarolik xizmatchisi imidjini yaratish uni targ'ib

qilish xuddi yurtimizda kitobxonlik va mutolaaga qaratilayotgan e'tibor kabi ildamlik bilan amalga oshirishlari kerak. Bu o'z navbatida albatta, davlat xizmatchilarining yangi avlodlarining kasbiy talablarini hisobga olib u bilan bog'liq holda o'qitish o'rgatish zaruratini belgilaydi. O'qigan va to'plagan materiallarim tahlilida aniqladimki, tadqiqotim jarayonida rivojlangan kompaniya rahbarlari va xodimlarining imidji ularning keyingi rivolanihini belgilab bergan shuning barobarida ular muhim hayotiy tajribaga ega bo'lishgan. Hozircha qo'limda yetarlicha isbot bo'lmasada o'z maqomlariga loyiq imidj va asl davlat xizmatchisi maqomiga ega shaxslar jamiyatimizda juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Aslida muammo kasbiy imidjiga ega davlat xizmatchilari yetishmasligida emas. Ular atrofimizda, shunchaki ularni qanday ko'rsata olishda. Eng asosiysi har bir tashkilot tizim rahbarlari kichikdan buyuklikka aylantirish jarayonidagi asosiy tarkib hisoblanadi. Yana bir narsani alohida ta'kidlash joizki, o'z imidjiga ega shaxslar ayniqsa davlat xizmatchilarining aksariyati juda kamtar bo'lib. Ular o'z shaxsiyatlarini atrofida shov-shuv bo'lishni xohlashmaydi, ko'zdan panada yurishadi. Tashkilot muvaffaqiyatga erisha kasbiy imidjiga ega shaxslar oynaga qarashadi buni atrofida gilar hamkasblari bilan bog'laydi, faqat o'zi bilan emas. Qiyinchilik onlarida ham xuddi shunday ko'zgiga qarab javobgarlikni o'z bo'ynilariga olishadi. Davlati va tashkiloti Yutuqlari va natijalar uchun zarur bo'lgan hamma narsani qilishga tayorligi va fidoyiligi bilan ajralib turadi. Bu o'z navbatida davlat fuqarolik xizmatchisining imidji hisoblanadi. Albatta, bu mening kasbiy qarashlarim. Men ilmiy tadqiqotni endi boshladim. O'ylaymanki, davlat xizmatchisi imidji bizda allaqachon shakllanib bo'lgan. Yuqorida aytib o'tganimdek, buni vaqt va kuzatuvlar tadqiqotlar natijasi ko'rsatadi. Imidj keng harakter. Men imidjni harakter bilan bog'lagan bo'lardim. Inson o'z harakteri his va tuyg'ulari hamohangligida va albatta, kasb uzviyligi bilan imidj hosil qiladi. Va yaralgan imidj kelajakka muhrlanadi. Liderlik salohiyatiga ega shaxslar aynan o'z xizmat va shaxs imidji egalari bo'lgan desam adashmagan bo'laman.

Xulosa o'rinda har qanday davlat tashkilotidagi davlat xizmatchisi tashkilotga ma'lum ta'sir ko'rsatishini takror ta'kidlab o'tsam. Tizimda xizmat imidji shakllanmagan bo'lsa vaqt o'tgani sayin imidjlikka oid bundagi muhit natijalar o'z-o'zidan pasayib boraveradi. Agar buning aksi bo'lsa, har bir davlat xizmatchisi o'z imidj salohiyatiga ega bo'lsa, ular o'z ustida qayta ishlab borgudek bo'lishsa, bundagi imidj bilan bir vaqtda natijalar ham o'zgarib ijobiy tomonga keskin burilib o'sa boshlaydi.

Misol: sportchilarning harakatlari va natijalarini musobaqalarda ko'ramiz va guvoh bo'lamiz. Bevosita muvaffaqiyatgacha bo'lgan davrni ham ko'rishimiz mumkin. Davlat tashkilotlari xizmatchilari harakatlari aksincha tasvir ortidan amalga oshiriladi. Ularning o'z ustilarida nechog'liq ishlashayotgani natijalari-yu yo'qotishlarini hech qachon kuzata olmaymiz ko'rolmaymiz. Lekin o'z yelkasida davlat xizmatchisi imidji degan oliy maqomni ko'tarib yurgan qisqa qilib aytganda liderlarni xizmat doirasida qilayotgan ishlari, mehnatlarining sarhisobida anglashimiz qiyin bo'lmaydi. Ularda sohaviy imidj yaqqol sezilib turadi. Uni tajribalar, xatolar, harakatlar va kasbga bo'lgan muhabbat yuzaga chiqaradi. Chunki imidjni majburlab, tezkor yarata olmaymiz. Unga ter tukiladi. Vaqt sarflanadi.

Hayotim, imidjim va ishga oid prinsiplarim vaqt yillar mobaynida to'qnash kelganlarim natijasidir deb yozgan edi o'z davrining olimlaridan biri. Imidj shunday narsaki, u sizga o'z vaqtida ko'makchi ham bo'ladi. Xattoki u xohlaganingizni olishingizga yordam beradigan, xatti-harakatingiz uchun asos sifatida xizmat qiladigan fundamental haqiqatdir. Ishda,

hayotda har bir shaxs albatta, har kuni muhim qarorlar qabul qilishi, atrofdagilarda iliq taassurot qoldirgisi, ma'lum bir harakat va saviyaga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish istaki doimiy insonlarni ta'qib qiladi. Agar xizmat imidji nafaqat xizmat balki shaxs imidji shakllanmagan bo'lsa hayot bizni ro'baro' qiladigan har bir vaziyatga, ishga, katta odimlarga, xato va kamchiliklarga xuddi birinchi marta duch kelgandek munosabatda bo'lib, o'z fikr va qarashlarimizni to'g'ri ifodalay olmasligimiz mumkin. Aksincha, bu kabi vaziyatlarni turlarga bo'lib, ish uslubimizga yondashishda o'z imidjimizga ega bo'lsak, o'z ustimizda ishlash bidan birga imidjga ham vaqt sarflasak, oqilona qarorlarni teziroq qabul qilamiz va yaxshiroq

natijalarga erishamiz. Inson o'z imidjiga ega bo'lishi bu xuddi yutuq, muvaffaqiyat va natijalarning ajoyib to'plamiga ega bo'lishdek gapdir. O'z imidjiga ega ko'pgina davlat xizmatchilar ular uchun muhim rol o'ynagan yutuqlarga erishishda yordam bergan o'z imidj asosida ish ko'radi. Albatta, muvaffaqiyat yo'llari, imidji bir-biridan farq qiladi. Kasb imidjiga ega odam bo'lish degani bu aniq-ravshan izohlab bo'ladigan o'z qarashlari asosida muttasil ravishda faoliyat yuritishdir. Afsuski, bu ishni uddalay olmaydi. Davlat xizmatchisi o'z imidjini aniqlab reallashtirib olishi juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида»ги Қонуни. ЎРҚ-788, 08.08.2022.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
3. Котлер Ф., Ли Н. Корпоративная социальная ответственность. – М.: Вершина, 2008.
4. Почепцов Г.Г. Имиджелогия: теория и практика. – Киев: АДФ-Украина, 1998.
5. Почепцов Г.Г. Паблик рилейшнз для профессионалов. – М.: Рефл-бук; Киев: Ваклер, 2001.
6. Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. – М.: Кучково поле, 2014.
7. Лазутина Г.В. Профессиональная этика журналиста. – М.: Аспект Пресс, 2011.
8. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. – М.: Аспект Пресс, 2011.
9. Castells M. Communication Power. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
10. Grunig J.E., Hunt T. Managing Public Relations. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1984.
11. OECD. Recommendation of the Council on Public Integrity. – Paris: OECD Publishing, 2017.
12. OECD. Government at a Glance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.